

PUDRAT SHARTNOMASI № 17

“14” 06 2022 yil

Nurota tuman

Keyingi o'rinlarda «Buyurtmachi» deb yuritiladigan “Nurota tumani maktabgacha ta'lim bo'limi” nomidan nizomi asosida ish ko'ruvchi J.Boboqandov bir tomondan va keyingi o'rinlarda «Pudratchi» deb yuritiladigan “Muxamadamin-Abbos kelajagi” xususiy korxonasi nomidan ustavi asosida ish ko'ruvchi A.Suponov ikkinchi tomondan Nurota tumani maktabgacha talim bo'limiga qarashli 19 sonli DMTT tomorqa yeri hududidan artezan quduqlarini burg'ulash ishlarini bajarish bo'yicha quyidagi shartnomani tuzdilar:

1. TARAFLAR.

1. Bajariladigan qurilish ishlari ishchi loyihasiga asosan olib boriladi, bajariladigan ishlar tasdiqlanganligi to'g'risidagi dalolatnomalar va qurilish normalari va qoidalarida nazarda tutilgan boshqa hujjatlar va bajarilgan ishni buyurtmachi tomonidan tasdiqlangan (Forma-2) dalolatnomasi asosida ish olib boriladi.

Qurilish maydoni – mazkur shartnoma (kontrakt) doirasida barcha ishlarni bajarish davrida dalolatnoma bo'yicha buyurtmachi tomonidan Pudratchiga berilgan yer uchastkasi. belgilanadigan barcha belgilar bilan belgilab qo'yiladi;

Vaqtinchalik inshootlar – pudratchi tomonidan qurilish maydonida o'rnatiladigan va ishlarni bajarish uchun zarur bo'lgan har qanday tipdagi vaqtinchalik binolar va inshootlar;

Bajariladigan ishlar – sifati va aniqligini keyingi ishlar bajarilgandan keyin aniqlash mumkin bo'lmagan keyinchalik bajariladigan ishlar va konstruksiyalar bilan bajariladigan ishlar;

Shartnoma narxini bo'lib chiqish – ishlarning har bir bosqichi va yoki turlari qiymatini aniq belgilagan holda shartnoma bo'yicha ob'ektning umumiy qiymatini bosqichlarga taqsimlash.

2. SHARTNOMA MAVZUSI.

2. Pudratchi mazkur shartnoma shartlariga asosan Nurota tumani maktabgacha talim bo'limiga qarashli 19 sonli DMTT tomorqa yeri hududidan artezan quduqlarini burg'ulash ishlarini bajarish bo'yicha loyihada ko'zda tutilgan holda qurish bo'yicha qurilish ishlarini bajarish majburiyatini oladi, Buyurtmachi esa Pudratchiga qurilish ishlarini bajarish uchun zarur sharoitlar yaratish, ularni qabul qilish va to'lovni amalga oshirish majburiyatini oladi.

3. SHARTNOMA BO'YICHA ISHLAR QIYMATI.

3. Mazkur shartnoma bo'yicha Pudratchi tomonidan bajarilgan, tanlov savdosi (tender) natijasida aniqlangan va tender komissiyasining qarori 2022 yil «3» iyundagi bayonnoma bilan tasdiqlangan ishlar qiymati barcha soliqlar, yig'imlar va ajratmalarni o'z ichiga olgan holda loyiha smeta hujjatlariga asosan 159 000 000 (bir yuz ellik to'qqiz million) so'mni tashkil etadi.

4. Ishlar qiymati uzil-kesil hisoblanadi va keyinchalik qayta ko'rib chiqilishi mumkin emas, quyidagi hollar bundan mustasno;

Qurilish qiymatini ko'paytirishga yengib bo'lmaydigan kuch (fors-major) holatlari sabab bo'lganda;

Ishlar hajmi Buyurtmachi tomonidan o'zgartirilganda;

Ob'yektning qurilishi bir yildan ortiqqa o'zgartirilganda;

5. Qurilish muddati bir yildan ortiq bo'lganda ikkinchi yilga va keyingi yillarga shartnomaviy narxlarni aniqlashtirish qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

6. Tegishli asoslar mavjud bo'lganda, sanab o'tilgan o'zgarishlar Buyurtmachi bilan Pudratchi o'rtasidagi shartnomaga qo'shimcha bitim imzolash bilan rasmiylashtiriladi.

4. PUDRATCHINING MAJBURIYATLARI.

7. Mazkur shartnoma bo'yicha Pudratchi mazkur shartnomaning II-bo'limida nazarda tutilgan ishlarni bajarish uchun:

Barcha ishlarni mazkur shartnomada hamda ilovaga muvofiq ishlarni bajarish jadvalida nazarda tutilgan hajmda va muddatlarda o'zining kuchlari va yoki jalb qilingan kuchlar bilan bajarish hamda ishni Buyurtmachiga mazkur shartnoma shartlariga muvofiq topshirish;

Ilovaga muvofiq qurilish maydoniga zarur qurilish materiallari, buyumlar, konstruksiyalar, asbob-uskunalar va butlovchi buyumlar, qurilish texnikasini yetkazib berish, ularni qabul qilish, tushirish, omborga joylash va saqlash;

Qurilish maydoni hududida vaqtinchalik inshootlar qurish;

Buyurtmachining pudrat shartnomalari tuzilishi davomida subpudratchilar bilan shartnomalar tuzilishi, shartnoma mavzusi, subpudratchining nomi va manzili haqida buyurtmachini xabardor qilish;

Qurilish maydonida texnika xavfsizligi, ishlarni bajarish vaqtida atrof muhitni, o'tqazilgan daraxtlarni va yer uchastkasini muhofaza qilish bo'yicha zarur tadbirlar bajarilishini ta'minlash, shuningdek yoritish chiroqlari o'rnatish;

Qurilish tavakkalchiliklarini sug'urta qilish;

Qurilish maydoni qo'riqlanishini ta'minlash;

Mazkur shartnomada nazarda tutilgan barcha majburiyatlarni to'liq hajmda bajarish majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

8. Pudratchi mazkur shartnoma bo'yicha barcha ishlarni o'z kuchlari bilan va subpudratchilar tomonidan zarur tarzda bajarilishi hamda ob'ektning foydalanishga tayyor holda topshirilishi uchun Buyurtmachi oldida to'liq mulkiy javob beradi.

5. BUYURTMACHINING MAJBURIYATLARI.

9. Mazkur shartnomani bajarish uchun Buyurtmachi:

Mazkur shartnoma imzolangan kundan boshlab uch kun muddatda mazkur shartnomaga ilovaga muvofiq ishlarni bajarish uchun yaroqli bo'lgan qurilish maydonini ob'ekt qurilishi va qurilish tugallanguncha bo'lgan davrda dalolatnoma bo'yicha Pudratchiga berish;

Ishlar bajarilishi ustidan doimiy arxitektura-qurilish nazoratini va mazkur shartnomada qayd etilgan Pudratchi tomonidan qabul qilingan majburiyatlar va boshqa funktsiyalarga rioya etilishini nazorat qilish, Pudratchidan tugallangan ishlarni qabul qilib olishni ta'minlash;

Pudratchining barcha murojaatlarini o'n kun muddatda ko'rib chiqish va qaror qabul qilish;

Moliyalashtirish jadvaliga binoan Pudratchiga ilovaga muvofiq avans berish va joriy moliyalashtirishni amalga oshirish;

Mazkur shartnoma imzolangan kundan boshlab 5 kun davomida Pudratchiga ishlarni qabul qilish uchun zarur bo'lgan ijro hujjatlari ro'yxatini taqdim etish;

Mazkur shartnomada nazarda tutilgan majburiyatlarni to'liq hajmda bajarish majburiyatini oladi.

6. ISHLARNI BAJARISH MUDDATLARI.

10. Shartnoma: milliy valyuta «so'mda» o'zaro hisob-kitob qilinganda tomonlar uni imzolagan paytdan boshlab;

Keyinchalik EAVga konvertatsiya qilgan holda milliy valyutada «so'mda» o'zaro hisob-kitob qilinganda shartnoma qonun hujjatlariga muvofiq ro'yxatdan o'tkazilgandan keyin kuchga kiradi.

11. Pudratchi mazkur shartnomaga ilova qilinadigan moliyalashtirish jadvaliga muvofiq birinchi avans to'lovi tushgan kundan boshlab ishlarni bajarishga kirishadi.

12. Tanlov savdolari natijasi bo'yicha aniqlangan qurilishning davom etish vaqti ishlar boshlangan kundan e'tiboran 32 kunni tashkil etadi.

13. Mazkur shartnoma buyicha ishlarni bajarish jadvaliga muvofik amalga oshiriladi.

7. TO'LOVLAR VA HISOB-KITOBLAR.

14. Buyurtmachi Pudratchiga shartnoma bo'yicha ishlar umumiy qiymatining 30% miqdorida avans o'tkazadi, bu **47 700 000 (qirq etti million etti yuz ming)** so'mni tashkil etadi.

15. Buyurtmachi tomonidan Pudratchiga avans berilgandan so'ng, keyingi to'lov «Bajarilgan ishlar» dalolatnomasiga (forma-2) asosan amalga oshiriladi.

16. Pudratchi ob'ekt foydalanishga topshirilgunga qadar mazkur shartnoma bo'yicha ob'ektga mulk huquqini o'zida saqlab qoladi. Ob'ekt Buyurtmachiga topshirilgunga qadar ob'ektning tasodifiy yo'q qilinishi va shikastlanishi xavfi Pudratchining zimmasida bo'ladi.

17. Buyurtmachi mazkur shartnoma bo'yicha o'z zimmasiga qabul qilgan majburiyatlarni shartnoma kuchga kirgan kundan boshlab o'ttiz kun mobaynida bajarmagan taqdirda, Pudratchi bu haqda qonun hujjatlarida belgilangan tartibda Buyurtmachini yozma ravishda xabardor qilgan holda, shartnomaga o'zgartirishlar kiritish yoki shartnomani bir tomonlama tartibda bekor qilish xuquqiga egadir. Bunda Buyurtmachi Pudratchi tomonidan bajarilgan ishlar uchun haq to'lashdan ozod qilinmaydi.

8. KORRUPSIYAGA QARSHI SHART.

18. Ushbu shartnomaning har bir tomoni o'ziga nisbatan qo'llaniladigan barcha, shu jumladan O'zbekiston Respublikasi amaldagi qonunchilik va normativ hujjatlardagi Korrupsiyaga qarsh tegishli shartlar va talablarni tushunishi haqida bir birini ishonitiradi va ularga amal qilishni kafolatlaydi.

19. Buyurtmachi ushbu shartnoma amalda bo'lgan butun davr mobaynida u (shuningdek uning mansabdor shaxslari, direktori, xodimlari, agentlari va boshqa vakillar) Pudratchi korxonaning hamda manfaatlarida uning agenti yoki vakili sifatida harakat qilib, Pudratchi korxonaning hamda O'zbekiston Respublikasi amaldagi

qonunchilik va normativ hujjatlarining Korrupsiyaga qarshi tegishli shartlari va ta'lablriga qat'iy rioya etish majburiyatini oladi.

9. ISHLARNI BAJARISH.

20. Pudratchi ishlarni bajarish loyihasiga va mazkur shartnomaning VI-bo'limida ko'rsatilgan muddatlar bilan muvofiqlashtirilgan o'z rejasi va jadvaliga binoan ob'ektda ishlarni bajarishni muttasil ravishda tashkil etadi.

21. Pudratchi ob'ektda ishlarni olib borish tartibini davlat arxitektura – qurilish nazorati organlari bilan kelishadi va unga rioya etilishi uchun qonun hujjatlarida belgilangan tartibda javob beradi.

22. Qurilish maydonida umumiy tartibni ta'minlash Pudratchining vazifasi hisoblanadi.

23. Buyurtmachi qurilish maydonini berish to'g'risidagi dalolatnoma bilan bir vaqtda Pudratchiga ortiqcha tuproq va qurilish axlatini joylashtirish va yetishmayotgan tuproqni qazib olish uchun joy ajratish to'g'risidagi hujjatlarni beradi.

24. Pudratchi geodeziya nuqtalariga, liniyalar va darajalarga nisbatan ob'ektning to'g'ri va zarur tarzda belgilanishi, shunindек balandlik belgilari, o'lchamlari va bo'lish o'qlarining muvofiqligi to'g'ri joylashganligi uchun javob beradi.

Agar ishlarni bajarish jarayonida amalga oshirilgan bo'lish va geodeziya ishlarida xatolar aniqlansa, Pudratchi, Buyurtmachi bilan kelishgan holda tegishli tuzatishlarni o'z hisobidan kiritadi.

25. Pudratchi geodeziya bo'lish ishlarida o'rnatiladigan koordinatlar va balandliklar, geodeziya belgilarining joylashishi sxemalari va jadvallarini saqlaydi, ishlarni bajarish davrida va ular tugallangandan keyin ularni dalolatnoma bo'yicha Buyurtmachiga beradi.

26. Qurilish maydonida ishlarni bajarish davrida kommunikatsiyalarni vaqtincha ulashni va ulash nuqtalarida yangidan qurilgan kommunikatsiyalarni ulashni Pudratchi amalga oshiradi.

27. Pudratchi o'zi tomonidan qurilishda qo'llaniladigan qurilish materiallari, asbob – uskunalar va butlovchi buyumlar, konstruksiyalar va tizimlar sifati loyiha hujjatlarida ko'rsatilgan spetsifikatsiyalarga, davlat standartlariga, texnik shartlarga muvofiq bo'lishini hamda ularning sifatini tasdiqlovchi tegishli sertifikatlariga, texnik pasportlarga yoki boshqa hujjatlarga ega bo'lishni kafolatlaydi.

28. Alohida mas'uliyatli konstruksiyalar va berkitiladigan ishlar tayyor bo'lishiga qarab ularni qabul qilish boshlanishidan ikki kun oldin Pudratchi Buyurtmachini va «Davraxitektqurilishnazorat» inspeksiyasini yozma ravishda xabardor qiladi.

29. Agar berkitiladigan ishlar Buyurtmachining tasdig'isiz bajarilgan bo'lsa, yoki u bu haqida xabardor qilinmagan bo'lsa, yoki kechikib xabardor qilingan bo'lsa, u holda uning talabi bo'yicha Pudratchi Buyurtmachining ko'rsatmasiga muvofiq berkitiladigan ishlarning istalgan qismini o'z hisobidan ochishga, so'ngra esa uni tiklashga majburdir.

30. Agar Buyurtmachi Pudratchi va (yoki) uning subpudratchilari tomonidan ishlarning sifatsiz bajarilganligini aniqlasa, u holda Pudratchi o'z kuchlari bilan, qurilish va qurilish qiymatini ko'paytirmaslik sharti bilan ushbu ishlarni ularning zarur sifatini ta'minlash uchun kelishilgan muddatda qayta bajarishga majburdir. Ushbu shartnoma 34–bandining ikkinchi xat boshida ko'rsatilgan hollar bundan mustasno.

Agar Pudratchi sifatsiz bajarilgan ishlarni kelishilgan muddatlarda tuzata olmasa, Pudratchi ularni tuzatishni kechikishi oqibatida yetkazilgan zararlarni Buyurtmachiga to'laydi.

31. Pudratchi qurilish maydonini va unga tutash ko'cha polosasini, shu jumladan yo'l uchastkalari va yo'laklarni supurib – sidiradi va ozoda saqlaydi. Qurilish davrida maydondan qurilish axlatini buyurtmachi tomonidan ko'rsatilgan joyga chiqarib tashlaydi.

32. Ishlar boshlangan paytdan boshlab ular tugallangungacha Pudratchi ishlarni bajarish daftarini yuritadi. Daftarda butun ishlarning borishi, Buyurtmachi va Pudratchining o'zaro munosabatlarida ahamiyatga ega bo'lgan hollar va holatlar (ishlarning boshlanishi va tamom bo'lishi sanasi, materiallar, asbob-uskunalar berilishi, xizmatlar ko'rsatilishi sanasi, ishlarning qabul qilib olinishi, o'tkazilgan sinovlar, materiallar o'z vaqtida yetkazib berilmasligi bilan bog'liq to'xtab qolishlar, qurilish texnikasining ishdan chiqishi to'g'risidagi ma'lumotlar, shuningdek qurilishni tugallashning uzil-kesil muddatiga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan barcha ma'lumotlar) aks ettiriladi.

Agar Buyurtmachi ishlarning borishi va sifatidan yoki Pudratchining qaydlaridan qoniqmasa, u holda ishlarni bajarish daftarida o'z fikrini bayon qiladi.

Pudratchi daftarda Buyurtmachi tomonidan asosli ravishda ko'rsatilgan kamchiliklarni 3 kun muddatda bartaraf etish chora-tadbirlarini ko'rish majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

10. YENGIB BO'LMAYDIGAN KUCH (FORS-MAJOR) HOLATLARI.

33. Agar ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlar qisman yoki to'liq bajarilmasligi tabiat hodisalari va boshqa yengib bo'lmaydigan kuch holatlari natijasida kelib chiqsa va agar bu holatlar mazkur shartnomaning bajarilishiga bevosita ta'sir etsa, tomonlar bunday qisman yoki to'liq bajarmaslik uchun javobgarlikdan ozod etiladilar.

Mazkur shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarish muddati yengib bo'lmaydigan kuch holatlari amal qilgan, shunidek ushbu holatlar yuzasiga ketgan vaqtga munosib ravishda uzaytiriladi.

34. Agar yengib bo'lmaydigan kuch holatlari yoki ularning oqibatlari bir oydan ko'p vaqtga cho'zilsa, u holda Pudratchi va Buyurtmachi ishlarni davom ettirish yoki ularni konservatsiya qilish uchun qanday choralar ko'rilishini muhokama qiladilar.

35. Agar tomonlar ikki oy ichida kelisha olmasalar, u holda tomonlarning har biri shartnoma bekor qilinishini talab qilishga haqlidir.

11. KAFOLATLAR.

36. Pudratchi: barcha ishlar to'liq hamda mazkur shartnoma shartlarida belgilangan muddatlarda bajarilishini;

Loyiha hujjatlariga hamda qurilish me'yorlari, qoidalari va texnik shartlariga muvofiq barcha ishlarni bajarish sifatiga;

O'zi tomonidan qurilish uchun qo'llaniladigan qurilish materiallari, asbob-uskunalar va butlovchi buyumlar, konstruktsiya va tizimlar sifatini, ularning loyiha hujjatlarida ko'rsatilgan sertifikatsiyalarga, davlat standartlariga hamda texnik shartlarga muvofiqligini;

Ob'ektdan foydalanilganda muhandis tizimlari va uskunalarning foydalanish qoidalariga muvofiqligini kafolatlaydi.

Mavjud nuqsonlar va ularni bartaraf qilish muddatlari Pudratchi va Buyurtmachining ikki tomonlama dalolatnomasida qayd etiladi.

37. Pudratchi nuqsonlar va chala ishlar ko'rsatilgan dalolatnomani tuzishdan yoki imzolashdan bosh tortgan taqdirda, ularni tekshirib chiqish «Davarxitektqurilishnazorat» organlari tomonidan amalga oshiriladi, bu tomonlarning ushbu masala bo'yicha xo'jalik sudiga murojaat qilishini istisno etmaydi.

12. SHARTNOMANI BEKOR QILISH.

38. Buyurtmachi: shartnoma kuchga kirgandan keyin qurilishning boshlanishi Buyurtmachiga bog'liq bo'lmagan sabablarga ko'ra Pudratchi tomonidan bir oydan ko'p vaqtga kechiktirilganda;

Ishlarni tugatishning mazkur shartnomada belgilangan muddati Pudratchining aybi bilan bir oydan ortiq muddatga ko'paygan holda, Pudratchi tomonidan ishlarni bajarish jadvaliga rioya etilmaganda;

Pudratchi tomonidan shartnoma shartlari qurilish me'yorlari va qoidalarda nazarda tutilgan ishlarning sifati pasayishiga olib keladigan darajada buzilganda;

Qonun hujjatlariga muvofiq boshqa asoslar bo'yicha shartnomani bekor qilinishini talab qilish huquqiga ega.

39. Pudratchi: ishlarning bajarilishi Pudratchiga bog'liq bo'lmagan sabablarga ko'ra Buyurtmachi tomonidan bir oydan ortiq muddatga to'xtatib qo'yilganda;

Buyurtmachi tomonidan moliyalashtirish shartlari bajarilmaganda;

Qonun hujjatlariga muvofiq boshqa asoslar bo'yicha shartnomaning bekor qilinishini talab qilish huquqiga ega.

40. Shartnoma bekor qilinganda Buyurtmachi va Pudratchining qo'shma qaroriga ko'ra tugallanmagan qurilish bir oy muddatda Buyurtmachiga beriladi, Buyurtmachi bajarilgan ishlarning qiymatini Pudratchiga to'laydi.

41. Mazkur shartnomani bekor qilishga qaror qilgan tomon mazkur bo'lim qoidalariga muvofiq ikkinchi tomonga yozma bildirishnoma yuboradi.

42. Shartnoma bekor qilingan taqdirda aybdor tomon ikkinchi tomonga yetkazilgan zararni, shu jumladan boy berilgan foydani to'laydi.

43. Shartnomaning bir tomonlama bekor qilinishiga yo'l qo'yilmaydi, qonun hujjatlarida yoki mazkur shartnomada nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

13. TOMONLARNING MULKIY JAVOBGARLIGI.

44. Tomonlardan biri shartnoma majburiyatlarini bajarmagan yoki zarur darajada bajarmagan taqdirda aybdor tomon:

Ikkinchi tomonga yetkazilgan zararlarni qoplaydi; O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksida, «Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy-xususiy bazasi to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi qonunida, boshqa qonun hujjatlarida hamda mazkur shartnomada nazarda tutilgan tartibda javobgarlikga tortiladi.

45. Mazkur shartnomaga tegishli ilovalarda ko'rsatilgan o'z majburiyatlariga rioya qilmaganligi, o'z vaqtida moliyalashtirmaganligi va shartnomada belgilangan boshqa majburiyatlarni buzganligi uchun Buyurtmachi Pudratchiga kechiktirilgan har bir kun uchun majburiyatlarning bajarilmagan qismlarining 0,4% miqdorida penya to'laydi, bunda penyaning umumiy summasi bajarilmagan ishlar yoki ko'rsatilmagan xizmatlar qiymatining 50% dan oshmasligi lozim.

Penya to'lanishi Burtmachini shartnoma shartlari buzilishi tufayli yetkazilgan zararni qoplashdan ozod qilmaydi.

46. Shartnomaga muvofiq bajarilgan ishlar hajmini tasdiqlashda asossiz ravishda bosh tortganligi uchun Buyurtmachi Pudratchiga o'zi tasdiqlashni rad etgan yoki bosh tortgan summaning 15 % miqdorida jarima to'laydi.

47. Pudratchi ob'ektni o'z vaqtida ishga tushirish bo'yicha o'z majburiyatlarini buzganligi uchun Buyurtmachiga muddati o'tkazib yuborilgan har bir kun uchun majburiyatlarning bajarilmagan qismining 0,5 % miqdorida penya to'laydi, biroq bunda penyaning umumiy summasi ob'ekt shartnomaviy joriy qiymatining 50% dan oshmasligi lozim.

Buyurtmachi tomonidan topilgan nuqsonlar va kamchiliklar o'z vaqtida bartaraf etilmagani uchun Pudratchi Buyurtmachiga muddati o'tkazib yuborilgan har bir kun uchun sifatsiz bajarilgan ishlar qiymatining 0,5 % miqdorida penya to'laydi, bunda penyaning umumiy summasi sifatsiz bajarilgan ishlar qiymatining 50% dan oshmasligi kerak.

Penya to'lash Pudratchini ishlarni bajarishning yoki xizmatlar ko'rsatishning kechikishi tufayli yetkazilgan zararlarni qoplashdan ozod qilmaydi.

48. Agar bajarilgan ishlar sifati belgilangan standartlarga, qurilish me'yorlari va qoidalariga, ish hujjatlariga muvofiq bo'lmasa, u holda Buyurtmachi «Davarxitektqurilishnazorat» inspeksiyasining xulosasi asosida ob'ektni qabul qilish va uning uchun haq to'lashdan bosh tortishi, shunindek Pudratchidan sifati zarur darajada bo'lmagan ishlar qiymatining 15% miqdorida jarima undirish huquqiga ega.

49. Shartnoma bo'yicha majburiyatlar bajarilmaganligi uchun mazkur moddada nazarda tutilgan jazolardan tashqari shartnomani buzgan tomon ikkinchi tomonga boshqa tomon tarafidan kilingan xarajatlarda, mol-mulkinging yo'qotilishi yoki shikastlanishida, shu jumladan boy berilgan foydada ifodalanadigan penya bilan qoplanmagan zararlarni qoplaydi.

50. Muddat o'tkazib yuborilganligi yoki majburiyatlarning boshqacha tarzda zarur darajada bajarilmaganligi uchun penya to'lash tomonlarni ushbu majburiyatlarni bajarishdan ozod qilmaydi.

SHARTNOMA MAJBURIYATLARINI BUZGANLIK UCHUN JAVOBGARLIK

Mazkur shartnomani bajarmaganlik va (yoki) lozim darajada bajarmaganlik uchun aybdor taraf boshqa tarafga yetkazilgan zararni to'laydi, xamda O'zbekiston Respublikasi «Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy-xuquqiy bazasi to'g'risida»gi Qonunining 25-32 moddalari, O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 45 va 48-moddalariga muvofiq fuqarolik-huquqiy javobgarlik, O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 175, 176-1, 212-moddalarida nazarda tutilgan javobgarlik choralari qo'llaniladi.

14. NIZOLARNI HAL ETISH TARTIBI.

51. Shartnomani bajarishda va bekor kilishda shunindek yetkazilgan zararlarni qoplashda paydo bo'ladigan nizoli masalalarni tomonlar hal etolmasa ular qonun hujjatlarida belgilangan tartibda O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi asosida tegishli sud organlariga murojaat etiladi.

Ushbu shartnoma shartlarinig bajarilmaganligi yoki to'liq bajarilmaganligi uchun tomolar O'zbekiston Respublikasining 1998 yil 29 avgustdagi 670-1-sonli "Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi qonuni va O'zbekiston Respublikasi qonunchiligining boshqa amaldagi hujatlarida ko'zda tutilgan javobgarlikga tortiladi.

15. ALOHIDA SHARTLAR.

52. Mazkur shartnoma imzolangandan keyin, mazkur shartnomaga tegishli bo'lgan tomonlar o'rtasidagi barcha oldingi yozma va og'zaki bitimlar, yozishmalar, tomonlarning o'zaro kelishuvlari o'z kuchini yo'qotadi.

53. Pudratchi qurilish ob'ektiga yoki ularning alohida qismlariga tegishli ish hujjatlarini Buyurtmachining yozma ruxsatisiz, subpudratchilardan tashqari, biron-bir uchinchi tomonga sotish yoki berish huquqiga ega bo'lmaydi.

54. Mazkur shartnomaga barcha o'zgartirish va qo'shimchalar, agar ular yozma shaklda rasmiylashtirilgan va tomonlar ularni imzolashgan bo'lsa, xaqiqiy hisoblanadi.

55. Buyurtmachi bilan Pudratchi o'rtasidagi mazkur shartnomadan kelib chiqmaydigan yangi majburiyatlar paydo bo'lishiga olib keladigan har qanday ahdlashuvni tomonlar mazkur shartnomaga qo'shimchalar yoki o'zgartirishlar shaklida yozma ravishda tasdiqlashi kerak.

56. Agar Pudratchi shartnoma bo'yicha ishlar yakunlanganidan keyin qurilish maydonida o'ziga tegishli mol-mulkni qoldirsa, u holda Buyurtmachi Pudratchi qurilish maydonini ozod qilish sanasigacha bajarilgan ishlar uchun unga haq to'lashni kechiktirishga haqlidir.

57. Mazkur shartnomada nazarda tutilgan boshqa barcha hollar uchun amaldagi qonun hujjatlari normalari qo'llaniladi.

58. Mazkur shartnoma bir xil yuridik kuchga ega bo'lib, 2 nusxada tuzildi. Shartnoma yuridik xizmat ko'rsatish markazidan qonunga muvofiqligi to'g'risida huquqiy xulosa olingandan so'ng taraflar tomonidan imzolanib g'aznachilik bo'linmasidan o'tgan kundan boshlab qonuniy kuchga kiradi. Amal qilish muddati 31 dekabr 2022 yilgacha qadar etib belgilandi.


16. TOMONLARNING BANK REKVIZITLARI VA YURIDIK MANZILLARI:

«PUDRATCHI»

“Muxamadamin-Abbos kelajagi” X/K

Manzil: Nurota tuman Ibn Sino ko'chasi 12-uy
Bank nomi: Navoiy Milliy bank
Hisob raqam: 20208000204879306001
MFO: 00196 **INN:** 301729585
OKONX: 17141
Tel/faks: 97 321-80-08

Rahbar:  **A.Suponov**



«BUYURTMACHI»

“Nurota tuman maktabgacha ta'lim bo'limi”

Manzil: Nurota tuman Shodlik ko'chasi 47-uy
Bank nomi: Toshkent shahar Markaziy bank
SHXR: 100022860122387091100251001
MFO: 00014 **INN:** 305149506
OKONX: 04443
Tel/faks: 79 523-26-31
G'aznachilik nomi: Nurota tuman bo'limi
G'anachilik hisob raqam: 23402000300100001010
G'anachilik INN: 201122919

Rahbar:  **J.E.Boboqandov**



**YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN
HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO'G'RISIDA
HUQUQIY XULOSA**
№

1. Loyihaning turi:

Shartnoma.

2. Loyihaning nomi:

Pudrat shartnomasi.

3. Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma'lumot:

Nurota tumani maktabgacha ta'lim bo'limi, 10.06.2022 yil.

Huquqiy ekspertizadan o'tkazish natijalariga ko'ra,

XULOSA:

Nurota tumani maktabgacha ta'lim bo'limi va "Muxamadamin-Abbos kelajagi" X/K o'rtasida umumiy summasi 159 000 000 (bir yuz ellik to'qqiz million) so'm bo'lgan pudrat shartnoma loyihasi O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi, O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 22-apreldagi "Davlat xaridlari to'g'risida"gi O'RQ-684-son Qonuni hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 15.04.2022-yildagi "Byudjetlararo munosabatlarni va soliq ma'muriyatchiligini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi PQ-208-son Qarori talablari asosida tuzilgan.

Taraflarning javobgarligi me'yorlari va nizolarni hal etish tartibi qonunchilikka, xususan O'zbekiston Respublikasining 1998-yil 29-avgustdagi "Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi 670-I-son Qonuni talablariga mos keladi.

Shartnoma loyihasi amaldagi qonunchilik talablariga muvofiq ishlab chiqilgan va uni qabul qilish maqsadga muvofiq.

Bosh yuriskonsult



Sh.Soliev

14.06.2022-yil.

Протокол закупочной комиссии по конкурсу лот № 95157 на приобретение 19 сон ДМТТга карашли томорка ери худудидан Артезан кудукларини бургулаш ишлари

Способ проведения электронный

Дата 03.06.2022

Время рассмотрения 02.06.2022 20:23

Конкурсная комиссия Нурота туман мактабгача таълим булими Марказлашган, (Далее – Комиссия) в составе:

Председатель комиссии	BOBOQANDOV JASURBEK EGAMBERDIYEVICH	Рахбар	Рахбар
Секретарь комиссии	TOSHEV SHERZOD FAYZIQULOVICH	Бош хисобчи ўринбосари	Бош хисобчи ўринбосари
Член комиссии	RAHMONOV RO'ZIMUROT ABDUMAJITOVICH	Эксплуатация хизмати биноларнинг техник холати ва инфратузилмасини назорат қилиш жихозлаш бўйича мухандис	Эксплуатация хизмати биноларнинг техник холати ва инфратузилмасини назорат қилиш жихозлаш бўйича мухандис
Член комиссии	HAMIDOV AMINJON HABIBOVICH	Эксплуатация хизмати бошлиғи	Эксплуатация хизмати бошлиғи
Член комиссии	MAJIDOV AZAMAT SHAROFIDDINOVICH	Давлат харидлари ва шартномалар бўйича мутахасиси	Давлат харидлари ва шартномалар бўйича мутахасиси
Член комиссии	TURSUNOV PULOT SAFARBOYEVICH	Товар моддий қимматликлар ҳисоби бўйича ҳисобчиси	Товар моддий қимматликлар ҳисоби бўйича ҳисобчиси

Рассмотрев поступивших предложений со стороны участников по опубликованному объявлению на специальном информационном портале от 03.06.2022 года № лота 95157.

Метод оценки предложений – Бальный метод (Весовой коэф.технико-квалификационной части: 90.00 / Весовой коэф. ценовой части: 10.00)

Мин. балл: 39

Предмет закупки:

Наименование товара (работы, услуги)	Услуги по текущему ремонту сооружений
Подробное описание	19 сон ДМТТга карашли томорка ери худудидан Артезан кудукларини бургулаш ишларини бажариш 12
Количество товара	1.00
Единица измерения	
Цена товара (услуги) за единицу	160 014 484.40
Стартовая сумма	160 014 484.40
Валюта	UZS

По итогам рассмотрения поступивших предложений по технической части участникам присвоены следующие баллы:

Критерий №1 Банк кредитлари буйича муддати утган карздоликни мавжуд эмаслиги. Уз балансида асосий фондларга, мулкларга тақик куйилмаганлиги

Тип: Текстовое значение

Описание: Банк кредитлари буйича муддати утган қарздоликни мавжуд эмаслиги. Уз балансида асосий фондларга, мулкларга тақик қуйилмаганлиги

Обязательность: Критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
ООО NURATO-BURMASHTEX	10	1	6	Экспертная		
MUXAMADAMIN-ABBOS-KELAJAGI XK	10	Барча тегишли хужжатлар юкланди	10	Экспертная		
ООО NAVBAHOR SARBON INVEST	10	150000000	8	Экспертная		
ARABGUZAR-NURI XK	10	10	10	Экспертная		
ООО GLOBAL FINANCE CONSULTING	10	150,014,000.00	8	Экспертная		

Критерий №2 Солиқдан қарзи йуқлиги тугрисида маълумот. қайси турдаги солиқ туловчи эканлиги тугрисида маълумот

Тип: Текстовое значение

Описание: Солиқдан қарзи йуқлиги тугрисида маълумот. қайси турдаги солиқ туловчи эканлиги тугрисида маълумот

Обязательность: Критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
ООО NURATO-BURMASHTEX	10	4	6	Экспертная		
MUXAMADAMIN-ABBOS-KELAJAGI XK	10	Файл жойлаштирилди	10	Экспертная		
ООО NAVBAHOR SARBON INVEST	10	150000000	10	Экспертная		
ARABGUZAR-NURI XK	10	10	10	Экспертная		
ООО GLOBAL FINANCE CONSULTING	10	150,014,000.00	10	Экспертная		

Критерий №3 Ташкилотни шунга ухшаш соҳада бажарган ишлари тугрисида маълумот. Килинган ишлар далолатномасидан нусха худди шунга ухшаш иш бажарилган булса ижобий қаралади

Тип: Текстовое значение

Описание: Ташкилотни шунга ухшаш соҳада бажарган ишлари тугрисида маълумот. Килинган ишлар далолатномасидан нусха худди шунга ухшаш иш бажарилган булса ижобий қаралади

Обязательность: Критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
OOO NURATO-BURMASHTEX	10	3	10	Экспертная		
MUXAMADAMIN-ABBOS-KELAJAGI XK	10	Файл жойлаштирилди	10	Экспертная		
OOO NAVBAHOR SARBON INVEST	10	150000000	7	Экспертная		
ARABGUZAR-NURI XK	10	10	9	Экспертная		
OOO GLOBAL FINANCE CONSULTING	10	150,014,000.00	0	Экспертная	Дисквалифицирован	

Критерий №4 Ташкилот гувоҳномаси ва устави нусхаси

Тип: Текстовое значение

Описание: Ташкилот гувоҳномаси ва устави нусхаси

Обязательность: Критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
OOO NURATO-BURMASHTEX	10	2	7	Экспертная		
MUXAMADAMIN-ABBOS-KELAJAGI XK	10	10	10	Экспертная		
OOO NAVBAHOR SARBON INVEST	10	150000000	10	Экспертная		
ARABGUZAR-NURI XK	10	10	10	Экспертная		
OOO GLOBAL FINANCE CONSULTING	10	150,014,000.00	10	Экспертная		

Оценка участников финансовой части составила:

Наименование участника	Стартовая сумма	Предлагаемая сумма	Дата предложения	Оценка стоимости (балл)
OOO NAVBAHOR SARBON INVEST	160 014 484.40	150 000 000.00	01.06.2022 21:44:01	
OOO NURATO-BURMASHTEX	160 014 484.40	152 013 377.00	28.05.2022 12:08:44	
MUXAMADAMIN-ABBOS-KELAJAGI XK	160 014 484.40	159 000 000.00	31.05.2022 23:09:05	10.00
ARABGUZAR-NURI XK	160 014 484.40	160 000 000.00	02.06.2022 01:20:04	9.94

Итоговая оценка участников включая финансовой части составила:

Наименование участника	Общий балл по технической части	Общий балл по финансовой части	Итоговый балл

ООО НАВBAHOP SARBON INVEST	78.75		78.75
ООО NURATO-BURMASHTEX	65.25		65.25
MUXAMADAMIN-ABBOS-KELAJAGI XK	90	10	100
ARABGUZAR-NURI XK	87.75	9.9375	97.6875
ООО GLOBAL FINANCE CONSULTING	Не прошел	Не прошел	Не прошел

Закупочная комиссия по конкурсу лот № 95157 от 03.06.2022 года на приобретение 19 сон ДМТТга карашли томорка ери худудидан Артезан кудукларини бургулаш ишлари определила победителем:

MUXAMADAMIN-ABBOS-KELAJAGI XK
301729585

и резервный исполнитель: ARABGUZAR-NURI XK (205842580)

Проголосовали

Комиссия	Ф.И.О.	Голосование	Комментарии
Председатель комиссии	BOBOQANDOV JASURBEK EGAMBERDIYEVICH	Согласен	
Член комиссии	RAHMONOV RO'ZIMUROT ABDUMAJITOVICH	Согласен	
Член комиссии	HAMIDOV AMINJON HABIBOVICH	Согласен	
Член комиссии	TURSUNOV PULOT SAFARBOYEVICH	Согласен	

Протокол закупочной комиссии подписан посредством ЭЦП

Наименование участника	Сумма	Предельная цена	Дата предоставления заявки	Оценка (балл)
ООО НАВBAHOP SARBON INVEST	100 000 000,00	120 000 000,00	01.06.2022	78,75
ООО NURATO-BURMASHTEX	100 000 000,00	120 000 000,00	01.06.2022	65,25
MUXAMADAMIN-ABBOS-KELAJAGI XK	100 000 000,00	120 000 000,00	01.06.2022	90,00
ARABGUZAR-NURI XK	100 000 000,00	120 000 000,00	01.06.2022	87,75

Наименование участника	Сумма	Предельная цена	Дата предоставления заявки	Оценка (балл)
ООО НАВBAHOP SARBON INVEST	100 000 000,00	120 000 000,00	01.06.2022	78,75
ООО NURATO-BURMASHTEX	100 000 000,00	120 000 000,00	01.06.2022	65,25
MUXAMADAMIN-ABBOS-KELAJAGI XK	100 000 000,00	120 000 000,00	01.06.2022	90,00
ARABGUZAR-NURI XK	100 000 000,00	120 000 000,00	01.06.2022	87,75